

## RUS TILI FANINI O'QITISHDA XALQARO METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

**To'xtayeva Lola Ilxomiddin qizi**

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani*

*22- umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Rus tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolaning mazmun mohiyati quyidagicha, ta'lif sifatini oshirishda pedagog tomonidan yangicha g'oya metodlarning dars jarayonida qo'llanishi, o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirishda samarali usullar va mashg'ulotlarni qo'llashda zarur tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'z:** *nutq, izlanish, pedagogik mahorat, PIRLS, "Yumaloqlangan qor".*

Mamlakat kelajagi, uning go'zal istiqboli, saloyihatli yoshlarning ilg'or va innavatsion g'oyalari asosida yuksaladi. Bunaqangi taraqqiy topgan davlat barpo etish uchun esa, bugungi kun juda ham mas'uliyatli va shijoatli pedagog hodimlarimizdan intiluvchan, bilimga chanqoq o'quvchilarni voyaga yetkazishimizni talab qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda ular ongiga singdira olish ota-onal bilan bilan teng qatorda o'qituvchilardan ham ko'p mehnat talab qiladi. Izlanish, intilish va xohish bo'lsagina bu kabi vaziyatlar ijobjiy tus oladi.

Bugungi kunga kelib o'qituvchi pedagoglarga yana jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qarala boshladi. Bu esa o'z o'rnida ulardan yuqori malaka, sifatli bilim berish ko'nikmalarini talab qiladi. Sinfda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan jamiyki jabhalarning ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar oldida turgan ustozlari orqali dunyonи ko'radi, anglaydi tahlil qiladi. Mana shu boisdan, pedagog o'z ta'lif olguvchisining qalbiga kirib bora olishi, qo'llaridan tutib jamiyki olamni anglashga, insoniylik xususiyatlarini yurakka jo qilishga, samimiyligka chorlashi zarur. Qarab turgan qora ko'zlarning bizdan nimani so'rayotganini, nima istashini bilganimizdagina ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olamiz. Kerak paytida rag'batlantirishni, kerak paytidi kamchiliklarini asta- sekinlik bilan bartaraf qilib borishni bilish haqiqiy pedagogning eng katta yutug'i. O'zini tutish, to'g'ri gapiresh madaniyati o'qituvchiga hurmatni oshiradi. Nutq ravon, har bir berilgan ma'lumot aniq dalillar asosida, ishonarli qilib aytilsa, albatta, o'zlashtirish sifati yaxshi bo'ladi. Jumladan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) dasturi — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'ib, uning oxirgi 2016- yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi ushbu tizimda yetakchilik qilmoqda. Ta'lif

yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir.

Maktablarda rus tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ta'lim texnologiyalari, bu talim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali talim sifatini oshirish nazarda tutiladi. Xususan, rus tilini o'rganishda bunday axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzallikkleri mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos.

Rus tili darslarida CD disklar, avdio kitoblar, rasmi li izohlardan foydalanish nutqni o'stiradi, ravon gapirishga yordam beradi. Til o'rgatishda eng foydali usul o'zaro og'zaki suhbat. Darsda ham ko'proq muloqat qilish, so'zlarni tezroq o'zlashtirishga undaydi. Ko'proq ertak kitoblar o'qish, rus tilida she'rlar yod olish ham nutqni ravon qiladi, so'zları to'g'ri talaffuz qilishga undaydi. Mana shu sababli ham, til bilishda asosiysi, eshitib takrorlashdir. Shunchaki, metodlarni mavzuga moslagan holda tashkil qilish o'qituvchining epchilligiga bog'liq. "Rolli o'yin", "Fikrlar hujumi", "BBB", "Yumaloqlangan qor" kabi texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash yaxshi natija beradi.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi o'quvchilarga berilishi kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nigmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmagan holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon yetkazmagan holda yechimini topishga harakat qilmoqdamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997
2. Kurbanov Sh.Ye, Seytxalilov Ye. A. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Shark.